

**Jamoatchilik fikri asosida shakllantirilgan tadbirlarni tanlab olish va
“Fuqarolar tashabbusi jamg‘armasi”dan mazkur tadbirlarga mablag‘lar
ajratish to‘g‘risida**

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021-yil 13-apreldagi “Byudjet jarayonida fuqarolarning faol ishtirokini ta‘minlash bo‘yicha qo‘shimcha choratadbirlar to‘g‘risida”gi PQ-5072-sonli va O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Senati Kengashining 2021-yil 22-apreldagi KQ-213-IV-sonli qaroriga asosan jamoatchilik fikri asosida shakllantirilgan tadbirlarni tanlab olish va “Fuqarolar tashabbusi jamg‘armasi”dan mazkur tadbirlarga mablag‘lar ajratish maqsadida O‘zbekiston Respublikasining “Mahalliy davlat hokimiyati to‘g‘risida”gi Qonunining 6- va 24-moddalariga muvofiq Xalq deputatlari Buvayda tuman Kengashi

QAROR QILADI:

1. Quyidagilar:

- O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021-yil 13-apreldagi “Byudjet jarayonida fuqarolarning faol ishtirokini ta‘minlash bo‘yicha qo‘shimcha choratadbirlar to‘g‘risida”gi PQ-5072-sonli va O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Senati Kengashining 2021-yil 22-apreldagi KQ-213-IV-sonli qarori asosida joriy yilning 15-iyulidan 17-sentyabriga qadar o‘tkazilgan uch bosqichdan iborat jamoatchilik fikri asosida tadbirlarni shakllantirish jarayoni natijalari bo‘yicha tuman hokimligi moliya bo‘limi mudiri A.Ergashevning axboroti;
- O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Senati Kengashining 2022-yil 20-sentabrdagi “Tuman (shahar) byudjetlari mablag‘larini jamoatchilik fikri asosida shakllantirilgan tadbirlarga yo‘naltirish tartibi to‘g‘risidagi namunaviy nizomga o‘zgartish va qo‘shimchalar kiritish haqida”gi KQ-406-IV-sonli qarori ma‘lumot uchun qabul qilinsin.

2. Ishchi guruh xulosalariga asosan, Xalq deputatlari Buvayda tuman

Kengashining qarori bilan tasdiqlangan Nizom talablaridan kelib chiqib, ENG KO‘P ovoz olgan hamda “Ochiq byudjet” axborot portalida avtomatik tarzda g‘olib

sifatida tanlab olingan takliflar “g’olib” deb topilsin. Ushbu takliflarni moliyalashtirish bo’yicha, “Manzilli ro’yxat” 1-ilovaga muvofiq belgilansin.

Bunda:

- Jamoatchilik fikri asosida shakllantirilgan tadbirlarni amalga oshirish bo’yicha tuzilgan shartnomaga ishlar hajmining ko’payishi yoki loyihaning o’zgartirilishi bilan bog’liq o’zgartirishlar kiritilishiga yo’l qo’yilmaslik;
- Jamoatchilik fikri asosida shakllantirilgan tadbirlarni moliyalashtirishga yo’naltiriladigan tuman byudjeti mablag’lari tuman hokimligi qoshida ochilgan “Fuqarolar tashabbusi jamg’armasi” shaxsiy g’azna hisobvarag’ida jamlangan mablag’larni boshqa maqsadlarga sarflanishi ta’ qiqlanishi belgilab qo’yilsin.

3. Tasdiqlangan “Manzilli ro’yxat” asosida:

- Tuman hokimligi Moliya bo’limi (A.Ergashev) tanlab olingan tadbirlarni moliyalashtirilishini ta’minlash maqsadida, buyurtmachi tashkilotlariga tegishli mablag’ manbaasi bo’yicha (**4017**) “Fuqarolar tashabbusi jamg’armasi” maxsus hisob raqamlari ochilishini;
- Tuman hokimligi hisobxonasi (M.Asqarov) jamg’arma mablag’lari hisobidan tegishli buyurtmachi tashkilotlarga mablag’lar yo’naltirilishini;
- Buyurtmachi tashkilotlar ajratilgan mablag’larni loyiha-smeta hujjatlari asosida belgilangan tartibda maqsadli ishlatilishi va amalga oshirilgan ishlar bo’yicha Xalq deputatlari tuman Kengashi va tuman hokimligi huzuridagi “Ishchi guruh”ga ma’lumot kiritib borilishini ta’minlasin.

4. Xalq deputatlari Buvayda tuman Kengashining 2022 yil 7 fevraldagi IV-43-21-11-154-K/22-sonli qarori bilan tasdiqlangan “Tuman (shahar) byudjetlari

e-qaror.gov.uz 06.10.2022

3

mablaglarini jamoatchilik fikri asosida shakllantirilgan tadbirlarga yo’naltirish tartibi to’g’risida”gi nizomga, 2-ilovaga muvofiq o’zgartish va qo’shimchalar kiritilsin.

5. Tuman hokimligining axborot xizmati rahbari-matbuot kotibi (A.Soliyeva)

va tuman hokimligi moliya bo’limi (A.Ergashev) bilan birgalikda jamoatchilik fikri asosida shakllantirilgan va “g’olib” deb topilgan tadbirlarning moliyalashtirishi

hamda amalga oshirilishi lozim ishlar bo'yicha ma'lumotlarni "Ochiq byudjet" portaliga joylashtirilishi va keng jamoatchilikka muntazam yoritib borilishini ta'minlasin.

6. Tuman byudjetining jamoatchilik fikri asosida shakllantirilgan tadbirlarni moliyalashtirishga yo'naltirilgan mablag'larining belgilangan maqsadlarda va samarali foydalanilishi hamda mablag'larning ajratilishi uchun taqdim etiladigan barcha hujjatlarning haqqoniyligiga "Ishchi guruh" a'zolari shaxsan javobgarligi eslatib o'tilsin.

7. Mazkur qaror ijrosini nazorat qilish Xalq deputatlari Buvayda tuman Kengashining barcha doimiy komissiya raislariga va mazkur qaror ijrosini ta'minlash tuman hokimining birinchi o'rinbosari (D.Mirzahalilov), tuman hokimligi moliya bo'limi mudiri (A.Ergashev) zimmalariga yuklatilsin.

Tuman hokimi

Odiljonovich I. B.

2022-10-20 11:51:49